

Date: 7th March-2026

ENDOMETRIT KASALLIKLARIDA UTT AHAMIYATI

Nishanova Yulduz Khatamovna,
Azamjonova Mavluda
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Annotatsiya: Ayollar reproduktiv tizimining yallig'lanish kasalliklari (bachadon va uning ortiqalari yallig'lanishi) ginekologik kasalliklar strukturasida ko'ra 60-65% o'rinni egallab kelmoqda.[1] Hozirgi vaqtda bu kasalliklarni oldini olishda va erta aniqlashda eng samarali usullaridan biri bu ultratovush tekshiruv hisoblanib kelmoqda ultratovush tekshiruv (UTT) usulida nurlanish yo'qligi yuqori ma'lumot bera olishi va dinamikada qayta qo'llash imkoniyati borligi bilan muhim ahamiyatga ega o'zining bezararligi, yuqori informativligi va iqtisodiy jihatdan qulayligi bilan diagnostika bosqichida asosiy o'rinni egallaydi.

Kalit so'zlar. Endometrit, UTT, ayollar reproduktiv organlari patologiyalari.

Tadqiqotning maqsadi. Endometritni endometriy giperplaziasidan UTT tekshiruvlari kasallikni erta aniqlashdagi ahamiyatini tahlil qilish.

Material va metodlar. Tadqiqot davomida bachadon yallig'lanish kasalliklari, xususan, endometrit kasalliklari bilan murojaat qilgan masalan 60 nafar reproduktiv yoshdagi ayollar ko'rikdan o'tkazildi. Bemorlar yoshi o'rtacha 28 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan. SHu bemorlarga transabdominal UTT tekshiruv o'tkazilgan.

Natija. Biz kasalliklarni 2 guruhga bo'lib o'rgandik

Asosiy guruh: O'tkir endometrit belgilari aniqlangan bemorlar soni 32 nafar.

Nazorat guruhi: Surunkali endometrit belgilari aniqlangan bemorlar soni 28 nafar.

Tadqiqot davomida olingan natijalar o'tkir endometrit bilan kasallanganlar soni 9 nafari (28,1%) endometriy qalinlashgan va notekis 7 nafari (21,9%) bachadon bo'shlig'ida suyuqlik 11 nafari (37,4%) endometriyada gipoexogen o'choqlar va surunkali shakllarida ultratovush belgilari o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi va qolgan 28 nafari surunkali endometrit bilan kasallangan shulardan 16 nafari (57,2%) bachadon bo'shlig'ida sinekhiya 12 nafari esa (42,9%) endometriyda fibroz o'zgarishlar bilan kasallangan bemorlar aniqlandi.

Xulosa. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, UTT endometritni tashxislashda 92% aniqlik darajasiga ega. UTT usuli endometrit bilan kasallangan bemorlarda samarali davolash taktikasini tanlash uchun eng maqbul usul.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ayupova F.M. Ginekologiya: Tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2021. – 520 b.
2. Abramova M.S., et al. Ultratovush diagnostikasi asoslari. – Moskva: "GEOTAR-Media", 2022. (Akusherlik va ginekologiyada UTT bo'limi).



Date: 7th March-2026

3.Karimov A.X., Nizomov B.U. Ginekologik kasalliklarda exografik tashxislashning zamonaviy usullari. // O‘zbekiston tibbiyot jurnali. – Toshkent, 2020. – №4. – B. 45-50.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

